



# IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



**VOL.3 № 4**

**2026**

## **XALQ OG'ZAKI IJODI — MADANIY EKSPANSIYAGA QARSHI MA'NAViy BARQARORLIK VOSITASI SIFATIDA**

**Kimsanboyeva Zuhra Saminjon qizi**

Namangan davlat texnika universiteti, tayanch doktoranti

### **Annotatsiya**

Ushbu maqola xalq og'zaki ijodining zamonaviy globallashuv sharoitida madaniy ekspansiyaga qarshi ma'naviy barqarorlikni ta'minlashdagi rolini o'rganishga qaratilgan. Maqolada madaniy globallashuv sharoitida xalq og'zaki ijodini saqlab qolish va rivojlantirish milliy ma'naviy barqarorlikni ta'minlashning strategik yo'nalishi ekanligi, xalq og'zaki ijodi milliy identitetni mustahkamlash, an'anaviy qadriyatlarni saqlash va madaniy xotiraning davomiyligini ta'minlashda muhim vosita ekanligi, folklor janrlari axloqiy-ma'naviy qadriyatlarni avlodlardan avlodga o'tkazish mexanizmi sifatida faoliyat ko'rsatishi yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** xalq og'zaki ijodi, folklor, madaniy ekspansiya, ma'naviy barqarorlik, milliy identitet, madaniy xotira, globallashuv.

## **НАРОДНОЕ УСТНОЕ ТВОРЧЕСТВО — СРЕДСТВО ДУХОВНОЙ УСТОЙЧИВОСТИ ПРОТИВ КУЛЬТУРНОЙ ЭКСПАН**

**Кимсанбоева Зухра Саминжон кизи**

Наманганский государственный технический университет, базовый докторант

### **Аннотация**

Данная статья посвящена изучению роли народного устного творчества в обеспечении духовной устойчивости против культурной экспансии в условиях современного глобализма. В статье рассматривается, что сохранение и развитие народного устного творчества в условиях культурной глобализации является стратегическим направлением обеспечения национальной духовной устойчивости, народное творчество играет важную роль в укреплении национальной идентичности, сохранении традиционных ценностей и обеспечении продолжительности культурной памяти. Фольклорные жанры действуют как механизм передачи морально-духовных ценностей от поколения к поколению.

**Ключевые слова:** народное устное творчество, фольклор, культурная экспансия, духовная устойчивость, национальная идентичность, культурная память, глобализация.

## **ORAL FOLK ART — A TOOL FOR SPIRITUAL STABILITY AGAINST CULTURAL EXPANSION**

**Kimsanboeva Zuhra Saminjon qizi**

Namangan State Technical University, Basic Doctoral Student

### **Abstract**

This article is dedicated to exploring the role of oral folk art in ensuring spiritual stability against cultural expansion in the context of modern globalization. The article discusses that the preservation and development of oral folk art in the context of cultural globalization is a strategic direction for ensuring national spiritual stability. Folk art plays a crucial role in strengthening national identity, preserving traditional values, and ensuring the continuity of cultural memory. Folklore genres act as a mechanism for transmitting moral and spiritual values from generation to generation.

**Keywords:** oral folk art, folklore, cultural expansion, spiritual stability, national identity, cultural memory, globalization.

XXI asr madaniy globallashuv va axborot texnologiyalarining tez sur'atlar bilan rivojlanishi davri bo'lib, bu jarayon milliy madaniyatlarning o'ziga xosligini saqlashda jiddiy muammolarni yuzaga keltirmoqda. Madaniy ekspansiya — kuchli davlatlarning o'z madaniy qadriyatlarini boshqa xalqlarga bevosita yoki bilvosita singdirishi hodisasi — bugungi kunda global xavf sifatida namoyon bo'lmoqda.

Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan madaniy-ma'naviy islohotlar mamlakat taraqqiyotining ma'naviy asoslarini mustahkamlashga qaratilgan keng qamrovli va tizimli strategiyaning ajralmas tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'lmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: “Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va bunyodkorlik ishlari natijasida xalqimizning ongu tafakkuri, dunyoqarashi o'zgarimoqda. Yurtimizda huquqiy davlat, fuqarolik jamiyatini barpo etishda “Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari” degan hayotbaxsh g'oyaning ahamiyati tobora ortib bormoqda” [1]. Ushbu fikrlar shundan dalolat beradiki, amalga oshirilayotgan islohotlar, avvalo, jamiyat ongining tubdan yangilanayotganini, xalqimiz dunyoqarashida milliy o'zlikni chuqurroq anglash, fuqarolik mas'uliyatining mustahkamlanishi va ijtimoiy faollikning yuksalayotganini ko'rsatadi.

Shu ma'noda Prezidentimizning Uchinchi Renessans g'oyasiga doir qarashlari ham madaniy-ma'naviy islohotlarning chuqur falsafiy mohiyatini ochib beradi. Uning: “Biz o'z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta'lim va tarbiyani rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g'oyamizning asosiy ustunlari bo'lib xizmat qilishi lozim” [2], degan fikrlari madaniyat, san'at, ta'lim va fanni yagona ma'naviy-tarixiy meros hamda kelajak taraqqiyotini bog'lovchi strategik ustunlar sifatida talqin etadi. Shu bois jamiyatning ma'naviy-axloqiy poydevorini rivojlantirish, madaniyat va milliy san'atni yuksaltirish yangi bosqichdagi umummilliy taraqqiyotning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Bu esa Uchinchi Renessans g'oyasini amalga oshirishning strategik-falsafiy sharti va mezoni sifatida namoyon bo'ladi.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Tadqiqotda qiyosiy-tarixiy metod orqali turli xalqlarning folklor an'analari taqqoslanib, ularning umumiy va o'ziga xos xususiyatlari aniqlanadi hamda turkiy xalqlarning og'zaki ijodi o'rtasidagi aloqadorlik va o'zaro ta'sir jarayonlari o'rganiladi. Tipologik tahlil metodi asosida folklor janrlarining tuzilishi, funksiyasi va madaniy konteksti tahlil qilinadi. Shuningdek, Vladimir Propp tomonidan ishlab chiqilgan strukturaviy tahlil usulidan ham foydalanildi.

Etnografik kuzatish va kontekstual tahlil metodlari folklor namunalari ijro jarayoni, konteksti va ijtimoiy funksiyasini bevosita kuzatish, folklorning hayot bilan bog'liqligini aniqlash hamda turkiy xalqlarning og'zaki ijodi materiallari asosida madaniy identifikatsiya jarayonlarini o'rganishda qo'llanildi. Folklor matnlari ijtimoiy-madaniy kontekst doirasida tahlil qilindi. Bu yondashuv folklorning nafaqat matn, balki ijtimoiy amaliyot ekanligi haqidagi konsepsiyaga asoslanadi.

### **Natijalar va ularning tahlili**

Yangi O'zbekistonning dunyoviy va ijtimoiy-demokratik tamoyillarga asoslangan taraqqiyot strategiyasi kontekstida milliy folklor merosining ahamiyati yanada ortdi. Xalq og'zaki ijodi, eng avvalo, xalqning tarixiy xotirasi, hayotiy tajribasi, ma'naviy-axloqiy mezonlari va estetik ideallarini uzluksiz avlodlar aloqasi orqali kelajakka yetkazuvchi ma'naviy tizimdir. Shu bois folklorning targ'iboti va uni ilmiy asosda o'rganish yosh avlodda vatanparvarlik, ma'naviy yetuklik, milliy o'zlikni anglash kabi fazilatlarni shakllantirishga xizmat qilmoqda. Ushbu jarayon

faqat madaniy ehtiyoj emas, balki jamiyatning ma'naviy-siyosiy barqarorligini ta'minlashga qaratilgan muhim ijtimoiy vazifa hamdir.

Folklor qadriyatlar, bilimlar va tajribani avlodlar o'rtasida uzatish, milliy va etnik identifikatsiyani shakllantirish, axloqiy me'yorlar va ijtimoiy qoidalarni mustahkamlash, ijtimoiy tartibga solish, badiiy zavq va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish kabi funksiyalarni bajaradi.

Folklor janrlarining falsafiy ahamiyati shundan iboratki, ular voqelikni mifologik, axloqiy va estetik idrok etish orqali millatning dunyoqarashini taraqqiy ettiradi. Mazkur janrlar xalq tafakkurining ramziy-simvolik tizimini shakllantirib, kishilarning turmush tarzi, urf-odatlarini va ijtimoiy munosabatlarini ma'naviy jihatdan birlashtiruvchi ma'rifiy vositaga aylanadi. Xalq dostonlari va qo'shiqlarining tarbiyaviy funksiyasi ham ulkan ahamiyatga ega. Folklor san'ati "insoniyatning bolalik qo'shig'i" sifatida xalq tafakkurining beg'uborligi, samimiyati va hayotiy donoligini namoyon etadi.

Bu esa folklorning zamonaviy ijtimoiy muhitda ham o'z ma'naviy ta'sir kuchini saqlab qolganini, xalqning axloqiy-ruhiy ehtiyojlariga javob beradigan tirik madaniy tizim sifatida yashashini ko'rsatadi. Shu tariqa, xalq og'zaki ijodi faqat badiiy ijod mahsuli emas, balki jamiyatning tarixiy tafakkuri, milliy ideallari va ma'naviy qadriyatlarini saqlovchi hamda rivojlantiruvchi falsafiy manba sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Milliy meros va zamonaviy taraqqiyot o'rtasidagi uyg'unlik bugungi O'zbekiston davlat siyosati darajasida e'tirof etilgan strategik tamoyillardan biridir. Davlat rahbarlarining nutq va ma'ruzalarida ta'kidlanganidek, milliy qadriyatlar va umumbashariy taraqqiyot yutuqlari o'zaro bir-birini to'ldirishi, mamlakatning barqaror modernizatsiyasiga ma'naviy-ideologik asos bo'lishi zarur [3]. Bu yondashuv mazmunida tarixiy xotirani tiklash, ajdodlar merosini chuqur o'rganish va uning zamonaviy islohotlar bilan uyg'un tarzda amaliyotga tatbiq etilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois Yangi O'zbekiston sharoitida folklor merosini asrab-avaylash, uni qayta tiklash va rivojlantirish faqat madaniy-ma'rifiy faoliyat sifatida emas, balki jamiyatda tarixiy adolatni ta'minlash, milliy g'urur va o'zlikni anglash tuyg'ularini mustahkamlashga qaratilgan siyosiy-ijtimoiy vazifa sifatida ham qaralmoqda. Milliy folklor xalqning ma'naviy tafakkuri, hayotiy tajribasi, axloqiy ideallari va estetik dunyoqarashini o'z ichiga olgan badiiy-intellektual meros sifatida o'tmish va bugunni bog'lab turuvchi ruhiy ko'prik vazifasini bajaradi.

Madaniy ekspansiya — bir madaniyatning boshqasiga ustunlik qilishi va o'z qadriyatlarini o'rnatishi jarayoni bo'lib, u globallashuv sharoitida yanada kuchaymoqda. John Tomlinson bu jarayonni "madaniy imperializm" deb ta'riflaydi va uning mahalliy madaniyatlarga salbiy ta'sirini ko'rsatadi. Madaniy ekspansiya ommaviy axborot vositalari, Gollivud filmlari, musiqa industriyasi, iste'mol madaniyati, ya'ni global brendlar va hayot tarzining eksport qilinishi, til ekspansiyasi, xususan, ingliz tilining dominantligi va mahalliy tillarning marginallashuvi, shuningdek, G'arb ta'lim modellarining universal standart sifatida o'rnatilishi orqali namoyon bo'ladi. Arjun Appadurai globallashuvni besh "scape" — ethnoscape, technoscape, financescape, mediascape va ideoscape orqali tahlil qiladi [4]. Bu konsepsiya madaniy ekspansiyaning ko'p qirraliligini tushunishga yordam beradi.

Xalq og'zaki ijodi madaniy ekspansiyaga qarshi samarali himoya mexanizmi sifatida bir necha yo'nalishda ta'sir ko'rsatadi. Avvalo, folklor milliy "biz" tuyg'usini shakllantiradi va mustahkamlaydi. Anthony Smith millatchilik nazariyasida etnik identifikatsiyaning asosiy komponentlari sifatida umumiy mif va xotira, an'anaviy madaniyat hamda vatanga bog'liqlikni ko'rsatadi. Xalq og'zaki ijodi aynan shu komponentlarni o'zida mujassam etadi. O'zbek xalq dostonlari, masalan, "Alpomish" milliy qahramon obrazini yaratib, mustaqillik, adolat va vatanparvarlik kabi qadriyatlarni singdiradi. Doston qahramoni Alpomish siyomosida o'zbek xalqining ideal vakili tasvirlanadi. Hatto Sovet davrida ham bu doston milliy identifikatsiyani saqlab qolishda muhim rol o'ynagan.

Jan Assmann ishlab chiqqan "madaniy xotira" konsepsiyasiga ko'ra, bu jamiyatning o'z o'tmishi haqidagi tasavvuri va uning madaniy shakllanish jarayonini anglatadi [5]. Folklor esa

madaniy xotiraning eng muhim tashuvchisi hisoblanadi. Xalq qo‘shiq-lari va afsonalar tarixiy voqealar, mashhur shaxslar va muhim hodisalar haqidagi ma’lumotlarni avlod-dan avlodga uzatadi. Masalan, Movarounnahrda Amir Temur bilan bog‘liq ko‘plab afsona va rivoyatlar saqlanib qolgan bo‘lib, ular xalq ongida ushbu tarixiy shaxsning obrazini tirik tutadi.

Xalq maqollari, hikmatli so‘zlar va naqlar esa hayotiy donolik hamda axloqiy-me’oriy tajriba manbai sifatida xizmat qiladi. Alan Dundes maqollarni “xalq falsafasi” deb ataydi va ularning pedagogik ahamiyatini ta’kidlaydi [6]. O‘zbek xalq maqollari — “Bilimli elga — yetakchi, bilimsiz elga — yuk”, “Ona yurti — oltin beshiging”, “Otaning qadrini bilmagan, o‘z farzandidan ko‘rar” kabi hikmatlar milliy qadriyatlar tizimini aks ettiradi va ularni yangi avlodga yetkazadi.

Folklor ona tilining eng boy va go‘zal namunasidir. U tilning o‘ziga xos leksikasini, grammatik tuzilmalarini va stilistik xususiyatlarini saqlaydi. Joshua Fishman til va etnik identifikatsiya o‘rtasidagi mustahkam bog‘liqlikni ko‘rsatib, tilni “madaniy simvollarning eng muhimi” deb belgilaydi. O‘zbek xalq ijodida “omonlik so‘z bilan, jovonlik qo‘l bilan”, “ko‘rgan ko‘zga, eshitgan quloqqa”, “ko‘nglimni ko‘klam bosdi” kabi ibora va metaforalar mavjud bo‘lib, ular tilning boy imkoniyatlarini namoyon etadi.

Bundan tashqari, folklor jamoaviy identifikatsiyani mustahkamlaydi. Bayram va marosimlarda birgalikda kuylash, doston tinglash yoki xalq o‘yin-kulgilarida ishtirok etish jamoa a‘zolari o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlaydi. Richard Bauman performans nazariyasida folklor ijrosining ijtimoiy kontekstini ta’kidlab, uni “jamiyat a‘zolari o‘rtasidagi muloqot shakli” sifatida tavsiflaydi [7].

Hozirgi davrda xalq og‘zaki ijodi bir qator tahdidlarga duch kelmoqda:

1. Urbanizatsiya va shaharlashuv jarayoni an’anaviy hayot tarzining buzilishiga olib kelmoqda.
2. Globallashuv va axborot texnologiyalari yoshlar orasida G‘arb madaniyatiga qiziqishni oshirmoqda.
3. Folklor tashuvchilarining — ertakchilar, baxshilar, hofizlarning — kamayib borishi kuzatilmoqda.
4. Ta’lim tizimida folklorga yetarli e’tibor berilmayapti.
5. Zamonaviy ommaviy madaniyat folklorini siqib chiqarmoqda.

Yuqorida sanab o‘tilgan muammolarga qaramay, xalq og‘zaki ijodini saqlab qolish va ma’naviy-madaniy meros sifatida targ‘ib qilish davlat siyosati darajasida qo‘llab-quvvatlanib, qator normativ-huquqiy hujjatlar orqali huquqiy asos yaratilgan va bu boradagi ishlar izchil davom ettirilmoqda. YuNESKOning “Nomoddiy madaniy meros” dasturi doirasida folklor materiallarini raqamli formatda saqlash va ularni keng jamoatchilikka ochiq taqdim etish maqsadida raqamli arxivlar yaratish bo‘yicha loyihalar amalga oshirilayotgani ham muhim ijobiy natijadir.

Biroq ushbu ishlarni yanada mustahkam va keng ko‘lamda amalga oshirish uchun quyidagi yo‘nalishlarga alohida e’tibor qaratish zarur:

- xalq og‘zaki ijodining ko‘proq janrlarini raqamli texnologiyalar yordamida saqlab qolish;
- maktab va oliy ta’lim muassasalari dasturlarida folklor ta’limiga ko‘proq vaqt ajratish;
- Finlyandiyaning milliy eposi “Kalevala” maktab dasturining muhim qismi sifatida o‘qitilishi tajribasidan kelib chiqib, ta’lim tizimida zarur islohotlarni amalga oshirish [8];
- folklor materiallarini podcast, videoblog, mobil ilova va boshqa zamonaviy formatlarga aylantirib, yoshlar orasida ommalashtirish;
- xalq og‘zaki ijodini saqlash va targ‘ib qilishda xalqaro hamkorlik aloqalarini mustahkamlash;
- turkiy va boshqa xalqlar bilan folklor sohasida hamkorlikni rivojlantirish, qiyosiy tadqiqotlar olib borish.

### **Xulosa**

Tadqiqot natijalari xalq og‘zaki ijodining madaniy ekspansiyaga qarshi ma’naviy

barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynashini tasdiqlaydi. Folklor millat ruhiyatining asosi, madaniy identitetning muhim mezon va avlodlar o'rtasida qadriyatlarni uzatish mexanizmi sifatida xizmat qiladi. Globallashuv sharoitida folklori saqlab qolish va rivojlantirish milliy xavfsizlikning strategik yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu nafaqat o'tmishni eslab qolish, balki kelajakni qurish uchun zarur bo'lgan ma'naviy-axloqiy poydevorni mustahkamlash demakdir. Zamonaviy texnologiyalar va an'anaviy qadriyatlarni uyg'unlashtirish orqali xalq og'zaki ijodini yangi shaklda yosh avlodga yetkazish mumkin. Bunda asosiy maqsad folklorning hayotiy ahamiyatini saqlab qolish va uni zamonaviy madaniy hayotning ajralmas qismiga aylantirishdan iborat.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida (PQ-5040-son qaror). — 2021-yil 26-mart. — URL: <https://www.lex.uz>
2. Mirziyoyev Sh. M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. — Toshkent, 2020-yil 29-dekabr.
3. Mirziyoyev Sh. M. “Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi – ma'naviyatdir”: ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini takomillashtirishga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishidagi nutq. — 2021-yil 19-yanvar. — URL: <https://www.president.uz>
4. Appadurai A. Globallashuvning madaniy o'lchovlari: zamonaviylik keng miqyosda. — Minneapolis: University of Minnesota Press, 1996.
5. Assmann J. Madaniy xotira va ilk sivilizatsiya: yozuv, eslash va siyosiy tafakkur. — Cambridge: Cambridge University Press, 2011.
6. Dundes A. Maqolning tuzilishi haqida // Proverbium. — 1975. — 25-son. — B. 961–973.
7. Bauman R. Nutqiy san'at ijro sifatida. — Rowley, MA: Newbury House, 1977.
8. Tarkka L. Chegara hududi xalqlari qo'shiqlari: janr, refleksiya va ijro (kareliya marsiyalari misolida). — Helsinki: Finnish Literature Society, 2013.